qilishicha, u Xorazmdan chiqib ketgunga qadar ko‘plab ilmlarni egallab, shuhrat topishga ulgurgan edi. Shundan keyin boshlangan g‘urbat yillarida u turli shaharlarda adabiy majlislarda qatnashadi, Nishopurda bir qancha muddat muallimlik qilib, ko‘plab mashhur kishilarni tarbiyalaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Abu Bakr Xorazmiy hayoti va ijodiy biografiyasini qayta tuzishda adibning mualliflik asarlari, uning zamondoshlari tomonidan yaratilgan bibliografik asarlar va tazkiralarda keltirilgan ma’lumotlarga tayanish, shuningdek, keyingi davrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarga tanqidiy yondashish, faktlarni qiyosiy tahlil qilish va o‘zaro solishtirish aniq hamda ishonchli xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi. Bunday kompleks yondashuv nafaqat Xorazmiy shaxsiy biografiyasining xolis ilmiy manzarasini tiklashga, balki uning ijodiy merosini davr adabiy-ilmiy muhiti bilan uzviy bog‘liq holda baholashga, shu orqali o‘rta asr Xorazm adabiyoti tarixini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Tornberg C.J. (Ed.). (1867). *Ibn al-Athir. Chronicon quod perfectissimum inscribitur* (Vol. 10, pp. 523–524). Leiden, E.J.Brill.

(2). Ibn Khallikan. (1868). *Biographical Dictionary* (Vol. 3, pp. 108–110). (W. MacGuckin de Slane, Trans.). Paris, Oriental Translation Fund.

. (3) . هند، حسين طه. (1976). *الأدب العربي في إقليم خوارزم منذ الفتح العربي (93هـ) حتى سقوط الدولة الخوارزمية* بغداد: وزارة الإعلام.

(4). Abu Mansur as-Saolibiy. (1976). *Yatimat ad-dahr*. I. Abdullayev (tahq., tarj., izoh.). Toshkent, “Fan”.

(5). عائض، سعد الحارثي. (1977). *أبو بكر الخوارزمي: حياته وأدبه*.

(6). أحمد أمين مصطفى. (1985). *أبو بكر الخوارزمي: حياته وأدبه* القاهرة: الهيئة المصرية العامة للكتاب.

(7).السيد إبراهيم محمد الدد. (1985). *أبو بكر الخوارزمي: حياته، شعره، رسائله* القاهرة.

(8). Kamoliddinov Sh. (1991). Svedeniya Sam’ani ob uchenix i poetax Xorezma. *Materiali po istorii i istorii nauki i kulturi narodov Sredney Azii.* Tashkent, “Fan”.

(9). ياقوت الحموي . (1993). *معجم الأدباء = إرشاد الأريب إلى معرفة الأديب*(إحسان عباس, Ed.). بيروت: دار الغرب الإسلامي.

(10). Abdullaev I. (2002). Xorazm adabiyoti haqida yirik tadqiqot. “*Sharq” mash’ali,* 1-son.

(11). Abdullaev I. (2008). *Meros va talqin* (maqolalar to‘plami). Toshkent, “Fan”, 359–360-betlar.

(12). Al-Khuwārizmī A.B. M. ibn al-ʿAbbās. (1970). *Rasāʾil Abī Bakr al-Khuwārizmī* (N.W.Khāzin, Ed.). Bayrūt: Dār Maktabat al-Ḥayāh.

Xakimova Komila Kobiljon qizi (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti; komilaxakimova65@gmail.com),

Xasanova Mashhura Jumanovna (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, PhD)

“QISASI RABG‘UZIY” VA “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARLARIDA ODAM ATO NA’TI VA ODAM A.S. QISSASI MANBALARI

Annotatsiya. *Na’t tushunchasi, Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida Odam ato na’ti, na’tlarning turlari, ularning manbalarini tahlil qilish.*

Kalit so‘zlar*: na’t, she’riy na’t, nasriy na’t, “Qisasi Rabg‘uziy”, “Tarxi anbiyo va hukamo”, Qur’on, Tavrot, Odam, Havvo, Iblis.*

ПРОИСХОЖДЕНИЕ АДАМА И ИСТОКИ ИСТОРИИ АДАМА (МИР ЕМУ БЛАГОСЛОВЕНИЕ АЛЛАХА) В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ «КИСАС РАБГУЗИЙ» И «ТАРИХИ АНБИЙО ВА ХУКАМО»

Аннотация. *Понятие наът, наът Адама в произведениях Насируддина Бурхониддина Рабгузи «Кисаси Рабгузий» и Алишера Навои «Тарихи анбийы ва хукамо», виды натов, анализ их источников.*

Ключевые слова*: наът, поэтический наът, прозаический наът, «Кисас Рабгузи», «Тарх анбия ва хукамо», Коран, Тора, Адам, Ева, Иблис.*

THE ORIGIN OF ADAM AND THE SOURCES OF THE STORY OF ADAM (PBUH) IN THE WORKS “QISAS RABGUZIY” AND “TARIHI ANBIYO VA HUKAMO”

Annotation. *The concept of na't, the na’t of Adam in the works of Nasiruddin Burhoniddin Rabguziy “Qisas Rabguziy” and Alisher Navoi “Tarihi anbiyy va hukamo’, types of na’ts, analysis of their sources.*

Keywords: *na’t, poetic na’t, prose na’t, “Qisas Rabghuziy”, “Tarkh anbiyyah va hukamo”, Quran, Torah, Adam, Eve, Iblis.*

Kirish (Introduction). Na’tlar mumtoz adabiyotimizning an’anaviy va ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular ushbu davr adabiyotini o‘rganish va u haqida chuqurroq tasavvur hosil qilishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biridir. Na’tlar, asosan, payg‘ambarlar sha’niga aytiladigan maqtovlardan ibo-

rat bo‘lib, ko‘pgina mumtoz she’riy asarlarda uchraydi [7]. U haqida Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy o‘zining “Funun ul-balog‘a asarida shunday ta’rif beradi: “Bu o‘n nav she’rkim, zikr qilduq, har qoysida agar Tengri azza va jallaga hamd aytsalar, oni tavhid derlar. Agar Muhammad Mustafo alayhissalot vas-salomni vasf qilsalar, na’t derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru’ qilsalar, munojot o‘qurlar” [8]. Taroziy fikriga qaraganda, na’tlarda asosan Muhammad Mustafo alayhissalot vas-salom vasf qilinadi. Ammo ko‘pgina mumtoz asarlarda faqat Muhammad (s.a.v) emas, boshqa payg‘ambarlar vasf qilingan o‘rinlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlari shular jumlasidandir. Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida jami yigirma to‘rtta payg‘ambar qissasi she’riy va nasriy na’t bilan boshlanadi. Payg‘ambarlar ta’rifining asosiy manbalari esa muqaddas diniy kitoblar–Qur’on va Tavrotdir. “Qisasi Rabg‘uziy” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlaridagi ilk alqov birinchi inson va payg‘ambar bo‘lmish Odam a.s haqidaki, undagi nasriy na’t ham ohangdorligi, saj’dan unumli foydalanilganligi bilan musiqiylik kasb etgan va asarning o‘qishliligini orttirgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Na’tlar haqida asosiy ma’lumotlar Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a asari, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da uchraydi. So’nggi yillarda ushbu mavzuda ish olib borgan tadqiqotchilardan Ziyoda G’afforovani ko’rsatishimiz mumkin. Ziyodova G‘afforova “Navoiyning hamd va na’t g‘azallari tahlili” mavzusida nomzodlik disssertatsiyasini himoya qilgan.

Tadqiqot metadologiyasi (Research Methodology). Mazkur maqolani tadqiq etishda Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlaridagi Odam ato alqovlari qiyosiy tahlil etildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). “Qisasi Rabg‘uziy”da nabiylar ta’rifi odamlar avvali va payg‘ambarlar sarvari Odam alayhissalom alqovi bilan boshlanadi. Asarning “Qissai Odam safiy” alayhissalom” qismida quyidagicha na’t berilgan:

“U tuproqdin yaratg‘an, qudrat birla to‘ritgan[1], adiz[2] ko‘kka og‘g‘an,[3] ujmoh[4] ichra kirgan, Havvotek juft berilgan, Iblis vasvasasiga ilingan, yoruq[5] ujmohdin azrilg‘an[6], qorong‘u dunyoga ingan[7], uch yuz yil rabbana zalamna anfusana teb[8] yig‘lag‘an[9] va va la takraba xazixiash-shajarata[10] xitobin eshitgan, summaij tabahu rabbuhu[11] tojin boshing‘a urgan, inna-lloha istafa Aadama[12] xil’atin qizgan, usjudu li Aadama[13] karomati birla mukarram bo‘lg‘an va allama Aadama al-asma’a kullaxa[14] tashrifin bo‘lgan Odam safiy[15], xalifai vafiy”[16] [7].

Ushbu alqovda odamning tuproqdan yaratilgani, qudrat bilan bezatilgani, ulug‘ ko‘kka ko‘tarilgani, Jannatga kiritilgani, Havvodek juft berilgani, Iblisning vasvasasiga ilinib yorug‘ jannatdan haydalgani va qorong‘u dunyoga tushgani aytilmoqda. Odam yerga haydalgandan so‘ng uch yuz yil davomida “Rabbbana zalamna anfusana”, ya’ni, “Ey parvardidor, biz o‘zimizga o‘zimiz zulm qildik”, deb yig‘laydi. Va ko‘kdan “va la takraba xazixiash-shajarata” degan xitob keladi. Bu “Yaqinlashmanglar mana bu daraxtga” degan ma’noni anglatadi. So‘ngra summaij tabahu rabbuhu tojini boshiga, inna-lloha istafa Aadama libosini egniga kiyadi. Bu yerda Allohning Odamni afv etgani va tanlab olgani haqida gap ketmoqda. So‘ngra quyidagi oyat keltiriladi: “Usjudu li Aadama”–sajda qilinglar, ta’zim qilinglar odamga. Alloh ushbu karomati birla Odamni mukarram qiladi. Aadama al-asma’a kullaxa–Tangri taolo unga barcha narsaning nomini o‘rgatadi.

---

[1] To‘ritmoq–yaratmoq, bezamoq.
[2] Adiz–ulug‘.
[3] Og‘di–ko‘tarildi.
[4] Ujmoh–Jannat.
[5] Yoruq I.–yo‘riq, muomala, II.– ochiq va aniq. Matnda yorug‘ ma’nosida kelyapti
[6] Azrilg‘an–ajralgan ma’nosida
[7] Ingan–tushgan, yuqoridan pastga tushish, bu yerda Odamning Iblis vasvasasiga uchib Jannatdan yerga tushirilganiga ishorat qilinmoqda.
[8] Teb–deb
[9] Rabbana zalamna anfusana-ey parvardigorimiz, biz o‘zimizga o‘zimiz zulm qildik
[10] Va la takraba xazixiash-shajarata–yaqinlashmanglar mana bu daraxtga
[11] Summaij tabahu rabbuhu-keyin tanlab oldi uni parvardigori
[12] inna-lloha istafa Aadama–haqiqatdan, Olloh Odamni tanlab oldi
[13] Usjudu li Aadama-sajda qilinglar, ta’zim qilinglar odamga
[14] Aadama al-asma’a kullaxa–va o‘rgatdi Olloh Odamga hamma narsalarning otlarini
[15] Safiy–toza, pokiza, sara, tanlangan, yoxud samimiy do‘st, oqko‘ngil
[16] Vafiy–tugal, to‘liq, yetarli, komil

Rabg‘uziy Odamni “Odam safiy, xalifai vafiy” deb ataydi. Safiy odamning Alloh tomonidan tanlanganligiga, xalifai vafiy esa uning to‘liq xalifa, o‘rinbosar ekanligiga ishoratdir.

Nasriy na’tdan so‘ng she’riy na’t ham keltiriladiki, u Odam alayhissalom haqida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Taxtini ko‘tarub Farishta ujmoh ichra kivurub,
Tezginurda chiqmadilar hargiz aning erkidin.[1]
Chiqdi Havvo birla bo‘lub xush tana’um[2] *qildilar,*
Ichtilar ujmoh sharobin, yedilar et erkidin.
Bildi asmo ilmini[3] *ul et-u berdi belguluk,*[4]
Barcha tillar birla so‘zlar tozi forsiy turkidin.
Mundi ujmohning buroqin[5] *kezdi aning tegrasin,*[6]
Hulla[7] *kizdi egniga ham boshg‘a urdi bo‘rkidin,*[8]
Ozdi Iblis makri birla biruk erdi yolg‘uzin,
Ikki bug‘doy yedi chiqti sekkiz ujmoh mulkidin.[9]

Birinchi baytda quyidagilar haqida fikr yuritilmoqda: Alloh taolo odamni yaratgandan so‘ng qizil oltindan bir taxt tayyorlatadi, gavhar bilan bezattiradi. Taxtning balandligi “Masjid ul-Harom” cha, taxt ustidagi kursining balandligi esa Ka’ba balandligicha edi. Shohona liboslarni, oltin tojni boshiga kiyib odam bu taxtga o‘tiradi. Uch yuz ming farishta kelib taxt oldida tiz cho‘kadilar. Taxtni ko‘tarib jannatga kirgizadilar.

Chiqdi Havvo birla bo‘lub xush tana’um[10] *qildilar,*
Ichtilar ujmoh sharobin, yedilar et erkidin.

Farishtalar odamni jannatga kirgizganlaridan so‘ng ne’matlarni, hurlarni ko‘rdi, ammo o‘ziga o‘xshaydigan birini topmagani uchun o‘zini yolg‘iz his qiladi. Mavlo taolo odamni uyquga ko‘madi. Uyquli-uyqusiz holida uning qovurg‘asidan Havvoni yaratadi. Havvo g‘oyat go‘zal edi. Alloh taolo go‘zallikni yuzga bo‘lib, to‘qson to‘qquzini Havvoga, bir qismini butun dunyoga beradi. Odam va Havvo Jannat sharobi va go‘shtidan tanavvul qilib, Jannat ichra baxtli yashaydilar.

Bildi asmo ilmini ul et-u berdi belguluk,
Barcha tillar birla so‘zlar tozi forsiy turkidin.

Bir kun farishtalarga Odam taxtini ko‘tarib, hamma yerni aylantirish buyrug‘i berildi. Undan keyin Alloh “Asmo ilmi”ni odamga o‘rgatdi. Asmo ilmi bu ism qo‘yish ilmidir. Barcha narsalarni farishtalarga ko‘rsatib: “Agar to‘g‘ri so‘zli bo‘lsangiz bu narsalarning nomi nima, menga ayting”, dedi. Farishtalar ojiz bo‘lib: “Sen o‘rgatgan narsalardan boshqasini bilmaymiz”, dedilar. So‘ng odamdan narsalarning nomini so‘radi. Odam bu daraxt, bu tosh, bu suv deb dunyoda mavjud barcha tillarda javob beradi.

Mundi ujmohning buroqin[11] *kezdi aning tegrasin,*[12]
Hulla[13] *kizdi egniga ham boshg‘a urdi bo‘rkidin.*

Ushbu baytda Buroqning Odam alayhissalom atrofida aylanganligi, Odamning egniga hulla, boshiga bo‘rk kiyganligi aytilmoqda. Barchamizga ma’lumki, Buroq islom rivoyatlarida Muhammad (s.a.v) ni Isro va Me’roj kechasida Makkadan Quddusga, so‘ngra arshga olib chiqqan oq rangli, qanotli otdir. Buroq “barq”–chaqmoq so‘zidan olingan bo‘lib, juda tez uchuvchi degan ma’noni anglatadi [9].

Ozdi Iblis makri birla biruk erdi yolg‘uzin,
Ikki bug‘doy yedi chiqti sekkiz ujmoh mulkidin

---

[1] Erk–erk, podshohlik va buyruq o‘tkirligi
[2] Tana’um–ne’matlanish, bahramand bo;lish
[3] Asmo ilmi–ism qo‘yish ilmi
[4] Belguluk– belgilik, ma’lum; belguluk neng-belgilik narsa
[5] Buroq-afsonaviy uchar ot, diniy e’tiqodga ko‘ra go‘yo Muhammad alayhissalom Me’roj tuni unga minib Makkadan Quddusga va u yerdan arshga ko‘tarilgan emish
[6] Tegra–tevarak, atrof
[7] Hulla–bezakli kiyim, ziynat libosi; nafis matodan tikilgan kiyim
[8] Bo‘rk–bosh kiyim; qalpoq, telpak, bo‘rk
[9] Nosiruddin Rabg‘uziy.Qisasi Rabg‘uziy. T., “Yozuvchi”,1990, 16-bet.
[10] Tana’um–ne’matlanish, bahramand bo‘lish
[11] Buroq–afsonaviy uchar ot, diniy e’tiqodga ko‘ra, go‘yo Muhammad alayhissalom Me’roj tuni unga minib Makkadan Quddusga va u yerdan arshga ko‘tarilgan emish
[12] Tegra–tevarak, atrof
[13] Hulla–bezakli kiyim, ziynat libosi; nafis matodan tikilgan kiyim

Iblis jannatdan haydalgandan so‘ng, ko‘nglida adovat barq urib boraveradi va Odam va Havvoni ham jannatdan chiqarishga harakat qiladi. U vaqtlar ilon chiroyli bo‘lib tuyaga o‘xshaydigan hayvon edi, uning qizil, yashil, turli bezakli qanotlari bor edi. Havvo ilonning go‘zalligiga mahliyo bo‘lib, u bilan gaplashishni yaxshi ko‘rar edi. Iblis ilonning og‘ziga yashirinib jannatga kirishga muvaffaq bo‘ladi. Avval, Odamni oldiga kelib so‘zlaydi, lekin Odam uni eshitmaydi, keyin ayollarning ko‘ngli yumshoq bo‘ladi deb Havvoga deydi: “Bilasanmi, nega tangri taolo sizlarga bu daraxtdan yeyishni taqiqladi, chunki, kim bu mevadan yesa jannatda mangu qoladi, o‘lim ko‘rmaydi”. Bu so‘zlarni eshitib Havvo bug‘doydan yeydi va Odamga yeyishni so‘raydi. Odam Allohga bergan va’dasini unutadi, bug‘doyni og‘ziga solidi, chaynaydi, yutadi, ammo bo‘g‘ziga tiqiladi. Shu vaqt bergan va’dasi esiga tushadi. Ichkariga kirgizishni ham, tashqariga chiqarishni ham bilmaydi. Bo‘g‘zida yumaloq bo‘lib qoladi. Erkaklar bo‘g‘zida yumaloq bo‘lishini va ayollarnikida bo‘lmasligining sababi budir. Shunday qilib, Odam va Havvo ikki dona bug‘doy yeb sakkiz jannatdan ajraladilar.

Alisher Navoiy ham “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Rabg‘uziy tutgan yo‘lni tutadi. U ham she’riy, nasriy na’tlardan foydalanadi. “Tarixi anbiyo va hukamo” da Odam alayhissalom ta’rifi shunday boshlanadi:

“Odam Salavatulloh alayh xilqati Odamning kuniyati Bulbashardur va laqabi Safiyullohdur. Chun irodatulloh aning xilqatig‘a muqtaziy bo‘ldi, Jabroilga amr bo‘ldikim, bir miqdor tufrog‘ aning tiynati taxammuri uchun ul yerdinki, holo Makka aning o‘rnidadur” [3].

Navoiy ham Odamning laqabi, tuproqdan yaratilishi, havvoning unga juft qilib berilishi, taqiqlangan mevani yeb jannatdan quvilishi va undan keying voqealarni hikoya qiladi. Navoiy asarlarida ham she’riy ta’riflar mavjud:

Odamki, haq lutf ila mavjud etti,
Majmu’i mulk xaylig‘a masjid etti.
Oxir tanidin ruhni manqud[1] *etti,*
Ul nav’ki, nobud edi, nobud etti [3].

Bu yerda Odamning Alloh lutfi bilan vujudga kelgani, butun olam ahliga masjid etganligi, ya’ni Odamning birinchi inson va payg‘ambar ekanligi ta’kidlanmoqda. Oxir tanidan ruhni ozod etgani, bu bilan asli yo‘q bo‘lgan narsani yana yo‘qlikka qaytarganligi aytilmoqda. Zero, yo‘qdan bor qiluvchi, va bordan yo‘q qiluvchi zot Alloh taolodir.

Rabg‘uziy ta’riflarida ham Navoiy ta’riflarida ham asosan Qur’oni karim oyatlaridan foydalaniladi. Masalan Rabg‘uziyda: “Rabbana zalamna anfusana”, “Va la takraba xazixiash-shajarata”, “Summaij tabahu rabbuhu”, “Inna-lloha istafa Aadama”, “Usjudu li Aadama”, “Va allama Aadama al-asma’a kullaxa” kabi oyatlar keltirilsa, Navoiyda “Xammartu tiynati Odama biyyadaya arabina sabohan”[2], “Allama Odamaal asmoa kullaho”,[3] “Fasajadal maloikatu kulluho‘m ajmaunillo iblisa”,[4] “Va inna alaykal-la’nati ilo yavmiddin”,[5] “Yo Odamun, uskun anta va zavjuka al-jannata”[6] kabi oyatlar keltiriladiki, bular Rabg‘uziy va Navoiy asarlari, asosan, Qur’oni karimga tayanilganligini ko‘rsatadi. Lekin Qur’ondan tashqari boshqa diniy kitoblardan foydalanilgan bo‘lib, bu haqida Rabg‘uziy shunday she’riy parcha keltiradi:

Nafsut tuqa al-mushtara
Val mushtara rabbul vara
Va jinanuhu asmanuh-u
Val Mustafa dilalux-u
Lakin sakkahu Tavrat-u,
Injil-u, Zabur-u, Furqanh-u [6]

Ma’nosi quyidagicha:
Sotiladigan narsa taqvodorning joni
Uning xaridori insoniyatning parvardigori
Uning bahosi Ollohning Jannati
Uning dalili Ollohning muxtor elchisi
Isbotlagan uni Tavrot
Injilu, Zaburu, Qur’oni ham.

---

[1] Manqut–nuqtalangan, nuqta qo‘yilgan
[2] Xammartu tiynati Odama biyyadaya arabina sabohan–Odamning loyini qirq kun(tong) o‘z qo‘lim bilan qordim
[3] Allama Odamaal asmoa kullaho–Va u zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatadi
[4] Fasajadal maloikatu kulluho‘m ajmaunillo iblisa
[5] Va inna alaykal-la’nati ilo yavmiddin-va albatta, to jazo (qiyomat) kunigacha senga (barchaning) la’nati bo‘lur
[6] Yo Odamun, uskun anta va zavjuka al-jannata-ey, odam, sen esa jufting (Havvo) bilan jannatni maskan tutib…

Navoiy esa payg‘ambarlar ta’rifida nafaqat diniy kitoblarga, balki tarixiy asarlarga ham tayanadi: “Ammo mavlono sharaful milla vaddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” muqaddimasida aytibdurkim, Odam a.s. ni Shis g‘usl berib, namoz qildi va Hindistonda dafn qildi”. Ko‘rib turganimizdek Navoiy Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridan foydalangan.

Odam a.s ta’rifi deyarli barcha diniy kitoblarda bir-biriga o‘xshash holda tasvirlangan. Xususan, “Tavrot” ning birinchi kitobi bo‘lish “Ibtido”ning to‘rt bobida Odam haqida fikrlar mavjud. “Ibtido” ning 2-bobi “Adan bog‘i” ta’rifida odamning yaratilishi haqida quyidagicha fikr bildiriladi:

“Shunday qilib, Parvardigor egamiz, yerning tuprog‘idan odamni yasadi va uning burun teshigidan puflab, jon ato etdi. Shunday qilib, odam tirik jon bo‘ldi” [5].

“Tavrot”da Odamning Adan bog‘ini parvarish qilish uchun u yerga joylashtirilishi, bog‘dagi barcha mevadan yeyishi mumkinligi, ammo yaxshilik va yomonlikni bilish mevasidan yemasligi, yesa o‘lishi aytiladi.Parvardigor Odamni yolg‘iz qo‘ymaslik uchun unga sherik yaratmoqchi bo‘ladi. Turli xil hayvonlarni yaratadi, Odam ularga nom beradi, ammo Parvardigor ularni Odanga munosib ko‘rmaydi. Bir kun Odamni qattiq uxlatib qo‘yadi va uning qovurg‘asidan xotin kishini yaratadi. “Tavrot” Odam va Havvoni ilon yo‘ldan uradi. Bog‘ o‘rtasidagi daraxt mevasidan yesangiz, Xudoga o‘xshab qolasizlar, deydi. Havvo mevadan yeydi, Odamga ham beradi, ular uyatni his qila boshlashadi. Parvardigor Odam va Havvoning mevadan yeb yaxshi va yomonning farqiga boradigan bo‘lib qolganidan so‘ng, hayot mevasidan ham yemasin deb ularni jannatdan quvadi.

“Qur’on”ga “Tavrot”dagi voqealar deyarli bir-biriga yaqin bo‘lib, Rabg‘uziy va Navoiy ular bilan tanish bo‘lganligi, voqealar rivojini berishda muqaddas diniy kitoblarga tayanganligi va fikrni dalillashda Qur’on oyatlaridan foydalanganligi asarlarning ishonchliligini orttirgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotda na’tlar alohida o‘ringa ega. “Qisasi Rabg‘uziy” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlaridagi Odam a.s alqovi ham o‘zining chuqur tarixiy genezisi, badiiyati bilan ajralib turadi. Uning she’riy va nasriy na’t qismlaridan tarkib topishi, Qur’on oyatlari bilan bezatilishi, nasriy na’tda sajdan unumli foydalanganligi, baytlarning shunchaki estetik ta’sir qilib qolmay, balki o‘quvchi diniy bilimini kengaytirishi, muqaddas kitoblardagi ma’lumotlar chuqur o‘rganilib ishonchli ma’lumotlar asos qilib olinganligi bilan o‘quvchi ma’naviy olamini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotar ro‘yxati:

(1). Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. 1-jild, T., “Sharq", 2016.
(2). Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. 2-jild, T., “Sharq”, 2016.
(3). Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. www.ziyouz.com kutubxonasi
(4). Девону луғотит турк (индекс луғат). Т., “Фан”, 1967
(5). Ibtido. Muqaddas kitobni tarjima qilish institute. 2016. www.ibt.org.ru
(6). Nosiruddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. T., “Yozuvchi”, 1990.
(7). O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000
(8). Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балога. Т., “Хазина”, 1996.
(9). Wikipedia.uz internet sayti